



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI
REKTORINING 93-F- SONLI BUYRUG'I**

2025-yil 3-may

Samarqand sh.

*Oliy ta'lism, fan va innovatsiyalar
vazirligining 2025-yil 25-apreldagi
147-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash
to'g'risida*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-71-son Farmoni va "Davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalari mustaqilligini ta'minlash hamda faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2025-yil 21-apreldagi PQ-147-son qarorida belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lism, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 25-apreldagi "Oliy ta'lism, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini baholash to'g'risida"gi 147-sonli buyrug'i ma'lumot va ijro uchun;

Quyidagilar:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"di 2025-yil 21-apreldagi PF-71-son Farmonida belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlash yuzasidan nazorat-reja Oliy ta'lism, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 25-apreldagi 147-sonli buyrug'inining **1-ilovasiga muvofiq**;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalari mustaqilligini ta'minlash hamda faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2025-yil 21-apreldagi PQ-147-son qarorida belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlash yuzasidan chora-tadbirlar rejasidagi Oliy ta'lism, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025

-yil 25-apreldagi 147сонли buyrug‘ining **2-illovasiga muvofiq** tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 25-apreldagi 147сонли buyruqqa muvofiq yuklatilgan topshiriqlarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlash institut rektori zimmasiga yuklatilganligi inobatga olinsin.

3. **Devonxona mudiri (Sh.Djumabayev)ga** mazkur buyruq hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 25-apreldagi 147сонли buyrug‘ini barcha prorektorlar, fakultet dekanlariga, bo‘lim boshliqlariga hamda kafedra mudirlariga yetkazilishini ta’minlasin.

4. Ushbu buyruq ijrosini nazorat qilish O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor T.Sharipov zimmasiga yuklatilsin.

Asos: Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 25-apreldagi 147сонли buyrug‘i.

Rektor



M.Po‘latov